

## QADIMGI DAVR MUSIQA SAN'ATI. CHET EL MUSIQASI TARIXI.

*O'zDSMIFMF "Xalq ijodiyoti"*

*Professional: ta'lim cholg'u*

*ijrochiligi 3 bosqich talabasi*

**Qudratullayeva Ehtiromxon**

*Ilmiy rahbar: Rafiqjon Ahmedov*

*O'zDSMIFMF kata o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolaning mazmun mohiyati shundan iboratki qadim davrda musiqa san'ati qanday paydo bo'lgani, uning rivojlanishiga nima ta'sir ko'rsatgani va kimlar tomonidan yuksalgani haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz, shuningdek, chet el musiqasi tarixiga bir nazr tashlaymiz.

**Kalit so'zlar:** Qadimgi davr, chet el, qulchilik, sinkretizm, uffata, arfa, Misr, Yunon, Rim, Xitoy, Hindiston, Koreya, Markaziy Osiyo, Xan davri, astrologiya.

Insoniyat tarixida qadimgi davr musiqa madaniyati sharqda yuzaga kelgan Vavilon, Urartu, Yegipet, Finikiya mamlakatlarida shakillangan edi. Bu haqdagi ma'lumotlar eramizdan avvalgi IV- III asirlarga to'g'ri keladi va ularning tarixi juda katta davr 30- 40 asrlarni qamrab oladi. Qulchilik davrida mamlakatlarda san'at professional darajagacha yetib bordi. Bunda rassomlar, arxitektorlar, musiqachilar mehnati alohida o'rin egallab, bunday badiiy qimmatbaho narsalar yaratuvchisi, ustalar turli imtiyozlarga ega bo'lishdi. Boshqa san'at turlari kabi musiqa san'ati ham bevosita saroyga xizmat qilganligi bizga tarixdan ma'lim. Musiqa san'ati mashhur boy amaldorlarning koshonalarida o'yin- kulgu, qo'shiq raqis, cholg'u sozlarida chalish bilan birga insonga hursandchilik olib kelishda, hayotda zavqlanishga olib keldi va gullab yashnadi. Qadimiy san'at madaniyati sinkretizm ruhida sug'orilgan.

Chet el musiqasi, madaniyati tarixiga to'htaladigan bo'lsak, aynan qadimgi Misr musiqa madaniyati, qadimgi Xitoy musiqa madaniyati, qadimgi Hindiston musiqa madaniyati va qadimgi Yunon va Rim musiqa madaniyati haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Qadimgi Misr musiqa madaniyatining rivojlanishi miloddan avvalgi to'rtinchi ming yillikning oxiri, uchinchi ming yillikning boshlariga to'g'ri keladi. Yana cholg'u sozlari, qo'shiqlar va madhiyalarning matnlari, qadimgi Yunon va Rimning olimi-yu faylasuflarining qo'l yozmalarini ko'rar ekanmiz bunga amin bo'lamiz. Qadimgi Misr musiqasi saroy va haram ibodatxonalarida yangragan ekan. Jumladan musiqa turli toifaga mansub insonlarning dam olish vositalaridan biriga aylangan ekan. Shu bois Misrda musiqa "Xi" ya'ni "Orom olish" so'zi bilan nomlanishi tabiiydir. Jamoa sinflanishi davridan avval quyidagi cholg'ular mavjud edi: sistr, qo'ng'iroqchalar,

kolotushka hamda aerofonlarning ilk shakillari - hishtak va fletalardir. Dastlabgi, Qdimiy va O'rta podsholik davrida qamishdan yasalgan nay, uffata fletalar, turba, arfa, turli xil barabanlar, shiqildoqlar amalda qo'llanilgan va sevib injro qilingan. Misr ibodatxonalarida o'tkazilgan marosimlardamusika namunalaridan keng qo'llanilgan. Bu borada xudolar - Osiris, Isida, Totlarga bag'ishlab o'tkazilgan ibodatlar alohida qayd qilinadi. Qadimgi Misr musiqa ladi pentato'nikaga asoslangan. Shu bilan birga saroy musiqasi ham ma'lum darajada o'ziga xos bo'lgan. Milloddan avvalgi uchinchi ming yillikda Misrda xeyronomiya rivojlanib keng tarqalgan. Xeyronomiya taxmiman aytganda notalashtirish vazifasini bajargan. Qadimgi Misrda qobiliyatli va professional musiqachilar podsho saroyida hizmat qilganlar bulardan Xemre, Xufu-Anx va boshqalar misol bo'la oladi. Qadimgi Misr musiqasi yangi podsholik davrida tahminan milloddan avvalgi 1580- 1070- yillarda Osiyo, xususan Siriya bosimi ostida rivojlangan. Musiqa cholg'ularidan -g aboy, uchburchakli arfa, lira, lyutnya, kifara va boshqalar yangi cholg'u sozlari bo'lib qo'shildi. Yunon Rim ta'siri ostida Milloddan burun 332-395 yillarda avlos, buksina, lab-garmonikasi, ko'ndalang fleyta, turli xil lira va barabanlardan keng miqiyosda foydalanilgan Aleksandriyada gidravlos cholg'usi milloddan burun III asrda yaratilgan. Musiqiy -nazariy ilm astrologiya ta'siri jarayonida rivojlangan va 5 va 7 pog'onalariga alohida e'tibor berilgan: misol uchun 5 pog'onali angemiton va 7 pog'onali diyatonik tovush qatorlari hamda 5-7 torli arfa milloddan avvalgi 3 ming yillik - 1 ming yilliklarda ikki daryo oralig'ida joylashgan qadimgi davlatlar Shumer-Bobul va Assiriyaning musiqa madaniyati o'z navbatida Osiyo, Afrika, Janubiy- Yevropa ya'ni qo'shni madaniyatlar rivojiga ham o'z navbatida ta'sir qilgan. Musiqa bu davlatlarning saroy va diniy hayotida katta o'rin egallagan. Bu xalqlar musiqani sehirlil kuchiga ishonganlar.

Qadimgi Xitoy musiqa madaniyati haqida gaplashar ekanmiz o'z-o'zidan ko'z o'ngimizda saroy va ibodatxonlar, sarkardalar namoyon bo'ladi. Darxaqiqat ilk bor Xitoy musiqasi haqidagi afsona va miflar haqidagi ma'limotlar milloddan avvalgi 4-3 ming yillik, qadimgi marosim musiqasi haqidagi ma'limotlar miloddan avvalgi XVI-XI asrlarga to'g'ri keladi. An'anaviy marosim orkestirlari milloddan avvalgi XI - VIII asrlarda tashkil topgan. Byansin litofonlari, byanchjun mis qo'ng'iroqchalari, turli - xil qo'ng'iroqlar xun - chjun, goudyao, yun, bi, gu, barabanlardan syuan sopol nog'orasi va boshqa musiqa cholg'ulari orkestr tarkigiga kirgan. Milloddan avvalgi XI- VI asrlarda Xitoyda ashullachilik ijodi shakillari rivojlangan. Bunga misol tariqasida qo'shiqlar kitobi "Shitszin" ni keltirishimiz mimkun. Chjou davrining so'nggi pallasida saroyda musiqa va marosimlarni tshkil etuvchi "Dasiyue" jamoasi tuzildi va Xan davridan boshlab to Shimoliy va Janubiy podsholik davrigacha Xitoy musiqasi boy madaniyatga ega bo'lgan. Jumladan, saroy musiqa san'atining asosiy turlari o'rnida Kanfutsiy ibodat marosim musiqasi ya-yue va saroyda orom olish uchun mo'ljallangan musiqa su-yue rivoj topgan. Xitoy saroyida 300- 800 cholg'uchilardan iborat bo'lgan

an'anaviy orkestr shakillangan va bu orkestr tarkibiga kiruvchi cholg'ular sakkiz guruhga ajratilgan. Suy va Tan sulolasi hukumdorlik qilgan davrda qadimgi Xitoy musiqa madaniyati rivojlanib, yuksalib bordi. Bu davir san'atda- Tan uslubi deb nom oldi. Yan- yue orkestrining cholg'ulari tarkibiga Xitoy musiqa cholg'ularidan tashqari Hindiston, Koreya, Markaziy Osiyo davlatlari va boshqa xalqlar musiqa cholg'ularini kiritgan holda musiqiy ohanglari ham ijro qilingan

Qadimgi Yunon va Rim musiqa madaniyati davrida insoniyatni o'zini alhida kuchi, diqqatini bir joyga to'plaganda o'z qobiliyatlarini to'la ochib bergan. Bu madaniyatni yanada yuksalishi va ravnaq topishi uchun mustaxkam podevor bo'lgan.

Qadimgi Yunon musiqa madaniyati rivoji aynan Yevropa musiqa tarixining ilk davri bilan bevosita bog'liqdir. Qadimgi Yunon musiqa madaniyati haqidagi tasavvurlar arxeologik qazilmalardan topilgan buyumlar, qadimgi yozma manbalar, adabiyot yodgorliklari va maxsus musiqiy parchalar tahlilida shakillanib kelgan. Qadimgi Yunon musiqasining rivoji tahminan milloddan avvalgi ikkinchi ming yilliklardan tortib, millodning V asrigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Qadimgi Yunon musiqasining xalq qo'shiqlar "Georgiki" -dehqon qo'shiqlari, "Epitalama" va "Gimenei" to'y qo'shiqlari, "Trena" -yig'i qo'shiqlari, "embateriya" - safar qo'shiqlari va "Skolii" qo'shiqlari rivoj topgan.

Miloddan avvalgi IV asrning ikkinchi yarmida qadimgi Yunon musiqasi ellinistik davirda keng ko'lamda O'rtayer dengizlarida tarqala boshlagan. Qadimgi Yunon musiqasida ashulla va cholg'ularga harfiy no'talastirish usuli qo'llanilgan va bu yahshi natija bilan amalga oshgan. Qadimgi Yunonlarda turli xildagi cholg'ulardan keng qo'llanilib kelingan. Xususan torli gurihga -lira, kifara, forminga, kinir, barbiton, lirofeniksa, sambika, spadiks va boshqalar kiradi. Damli guruxga - singlar bir ikki va kòp turbali, avlon turli xillari bombiks, borim, kalam, gingr, niglar, yelim va turub cholg'ulari kiradi. Urma sozlar guruhiga - timpan, sistr, kimval, krotal, psifir, roptr kabi cholg'ular kiradi. Miloddan avvalgi III-II asrlarda birinchi suvli organ - gidravlos asbobini Aleksandriyalik mexanik Ktesibiy kashf qilgan. Qadimgi yunonistonda musiqaning etik Konsepsiyasini bir qator antik olimlar o'rgangan va ular ichida Platon va Aristotel izlanishlari alohida e'tiborga olingan.

Qadimgi Rim musiqa madaniyati qadimgi Yunonistongga nisbatan o'z demokratik rivojidan chetlashib, endilikda tomoshabop - orombaxsh yo'nalishda sirk musiqasi, teatr tomoshalari, virtuozlar konsertlari, Sharq va Yevropa musiqachilarining konsertlari rivojini davom ettirdi. Milodning I asri oxirida imperator Domitsian - shoirlar, xonanda va sozandalar orasida "kapitoliy musobaqalar"ni tashkil etib uning rivojini davom ettirgan. Maskir davrda Rim imperiyasining taniqli misiqachilari - Anaksenor, Tigelliy, Menekrat, Mesomed, Terpniy, Diodorlar musiqa rivoji uchun sitqi dildan xizmat qilganlar. Xristian dini o'zi bilan Rim imperiyasiga yangi madaniyatni olib kirgan. Bu madaniyat "Tilparastlar" madaniyatidan tubdan farq

qilibgina qolmay, milodning II asridan boshlab Qadimgi Rim musiqa madaniyatining keng qamrovli rivojini ilk xristian musiqasi bilan biriktiradi. XVII asrga qadar cherkov musiqasi professionallik markazi bo'lib xizmat qilgan. Cherkov madaniyati doirasida yuksak badiiy qadriyatlar, turli xil musiqiy janrlar, jumladan musiqa nazariyasi, notalashtirish va pedagogika tubdan rivoj topgan. Rimda ko'p xollardasaroy lirikasining ilk shakl ko'rinishlari aynan ularning musiqiy amaliyotida shakillanib brogan. Sayohatchilarning o'zi ham aktiyorlik, qo'shiqchilik, jo'rnavoz, raqqoslik va bastakorlik ko'rinishida maydonga chiqishgan. U yerda musiqiy cholg'ular – turba, rog' svirel, pan- fleyta, volinka, arfa, krot, rebab, viyela, fidel kabi musiqiy cholg'ularda mahorat va professionallik bilan ijroda foydalanganlar. Qadimgi Rim sinkretik san'atida Jonglor va shu kabi artist, akrobat, musiqachi va raqqoslarda o'zlarining ma'lum madaniy-tarixiy an'analariga ega bo'lish ehtimoli imkon qadar kuchli bo'lganligini kuzatish mumkin. XII- XIII asrlarda G'arbiy yevropaning bir necha davlatlarida trubadurlar musiqiy- poetik san'atining badiiy ta'siri alohida ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi Hindistonning qariyb besh ming yillik tarixiga ega musiqa madaniyati mavjud. Miloddan oldingi 3 – ming yillik davrida uning ildizlari Xarappa va Moxendjo sivilizatsiyasi gullab yashnagan. Avvalo, hind diniy va keyinchalik esa ilmiy – ommabop manbalarida ham maxalliy musiqa tarixining ilohiy e'tiqot ibtidosidan boshlanganligi takidlangan. Diniy marosimning an'anaviy vedalari bilan bir qatorda xalq va saroy san'atining rivojlangan shakllari bo'lgan. Hind folklorining serjiloligi turlarida, lad- ritmik tizimida, janirlarida eng avvalo, Hindistonni polietnik va ko'p tilli davlat ekanligidan darak beradi. Hindistonda lirik qo'shiqlar- bxatiali Bengalda, dxola Pendjabda, panixari Radjastxonda; ish jarayonida ijro etiladigan qo'shiqlar – shari Bengalda, maxitya Penjabda, kadjari Uttar- Pradeshda qo'shiq- raqis shakllari – garba Gudjaratda, sua Madxya – Paradeshda, kollatam Keralada, chakri Kashmir xalqlari ichida keng tarqalgan. Hindistonda musiqiy cholg'ular ham rivojlangan ular tarkibida: urma cholg'ular- dxol, dxolak, damaru, udukkai, daf, tammatai, kandjira, gammati, nog'ora; damli cholg'ular – kambu, singx, tiruchinnam, karna ya'ni karnay, bansuri, murali, algoza ya'ni fleyta, pungi, maxudi, gxonga, moxori, nagasar, sunray, naferi; torli - chertma cholg'ular – ektor, dotar ya'ni dutor, tuntune, djantar; torli kamonli cholg'ularga esa kamaycha, banam, sarinda kabi cholg'ular sevib ijo qilingan va hozirgi kunda ham bu cholg'ulardasn keng ko'lamda foydalanadilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ibrohimov O. A., Xudoyev G'. M. "Musiq tarixi" Toshkent- 2018 yil.
2. R. Tursunova, G Tursunova "Jahon musiqa tarixi" Toshkent- 2017 yil.
3. A. Jabborov, S. Begmatov, M. Azamova "Ozbek musiqa tarixi" Toshkent-2018 yil.
4. N.F.Nizomiddinov "Hind mumtoz musiqasi va milliy cholg'ulari" Toshkent- 2008 yil.